

Date: 13th January-2026

**BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTALARIDA INNOVATSION
TEXNALOGIYALAR ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI**

Shodiyeva Baxtigul Xasan qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

Musiqa ta'lim va san'at yo'nalishi 2- bosqich magistranti

Email baxtigulshodiyeva23@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalar musiqa va san'at maktablarida dars jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishning metodik jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarning musiqa ta'limi jarayoniga ta'siri hamda ularning o'quvchilarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, amaliy darslarni interfaol metodlar, multimedia vositalari va raqamli resurslar asosida tashkil etishning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, musiqa ta'limi, amaliy darslar, metodika, interfaol yondashuv.

**METHODOLOGY FOR ORGANIZING LESSONS IN CHILDREN'S MUSIC AND
ART SCHOOLS BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES**

Annotation: This article examines the methodological aspects of organizing lessons in children's music and art schools based on innovative technologies. The study analyzes the impact of modern pedagogical and digital technologies on the music education process and their role in developing students' musical abilities. In addition, the effectiveness of organizing practical lessons using interactive methods, multimedia tools, and digital resources is substantiated from a scientific perspective.

Keywords: innovative technologies, music education, practical lessons, methodology, interactive approach.

**МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ ЗАНЯТИЙ В ДЕТСКИХ МУЗЫКАЛЬНЫХ И
ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ШКОЛАХ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ**

Аннотация: В статье рассматриваются методические аспекты организации учебного процесса в детских музыкальных и художественных школах на основе инновационных технологий. Анализируется влияние современных педагогических и цифровых технологий на процесс музыкального образования, а также их роль в развитии музыкальных способностей учащихся. Обоснована эффективность организации практических занятий с использованием интерактивных методов, мультимедийных средств и цифровых ресурсов.

Ключевые слова: инновационные технологии, музыкальное образование, практические занятия, методика, интерактивный подход.



Date: 13th January-2026

KIRISH (INTRODUCTION)

XXI-asr texnologiyalar asri sifatida e'tirof etilgan davr hisoblanadi, bu davrda ilm-fan va texnologiyaning tezkor rivojlanishi inson hayotining barcha sohalariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, mobil ilovalar va virtual hamkorlik tizimlari kundalik faoliyatimiz bilan birga, ta'lim jarayonini ham tubdan o'zgartirmoqda. Musiqa ta'limi sohasida ham bu o'zgarishlar an'anaviy darslarni yangicha pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish imkoniyatini yaratmoqda. Endilikda musiqa darslarini nafaqat nazariy bilimlar va ijro mahorati orqali o'tkazish, balki o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish dolzarb vazifaga aylangan. Shu bilan birga, texnologik rivojlanish musiqa ta'limida o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, individual yondashuvni tatbiq etish va o'quvchilarni zamonaviy ijodiy muhitga moslashga tayyorlash imkonini ham beradi

“Innovatsiya” so'zining lug'aviy ma'nosi (lotincha innovatio — yangilash, yangilik kiritish) avval mavjud bo'lgan faoliyat shakllarini yangicha mazmun, usul yoki vositalar bilan takomillashtirish, ularni amaliyotga joriy etish jarayonidir. Pedagogik jihatdan innovatsiya — bu ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida yangi g'oyalar, metodlar, texnologiyalar va yondashuvlarni yaratish hamda amaliyotga tatbiq etishdir. Texnologiya (yunoncha techne — mahorat, san'at, hunar; logos — ta'limot, bilim) ma'lum bir maqsadga erishish uchun ish jarayonlarini, usullarni va vositalarni tizimli, rejalashtirilgan va ketma-ketlikda qo'llash majmuidir. Pedagogik nuqtai nazardan texnologiya — bu o'qitish jarayonini oldindan loyihalash, uni aniq bosqichlar asosida tashkil etish va kutilgan natijaga erishishni kafolatlaydigan usullar tizimi.

O'zbekiston Respublikasida “Raqamli ta'lim – 2030” konsepsiyasi va bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha davlat dasturlari doirasida raqamlashtirish jarayoni jadallashmoqda. innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari, raqamli dasturlar va multimedia imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi. Musiqa madaniyati darslarida interaktiv doskalar, planshetlar va maxsus musiqa ilovalari keng qo'llanilmoqda bu raqamli texnologiyalar o'zbek xalq cholg'u sozlari (dutor, rubob, doira) va milliy maqomlarni o'rgatishda ham qo'llanilmoqda bular, virtual 3D modellar va audio-vizual materiallar orqalidir. Bugungi kunda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar bolalar musiqa va san'at maktablari amaliy dars jarayoniga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etilib va natijada, musiqa maktabida innovatsion texnologiyalardan foydalanish – bu nafaqat zamonaviy talab, balki milliy musiqa ta'limini yangi bosqichga olib chiqadigan strategik yo'nalish hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Mazkur tadqiqot bolalar musiqa va san'at maktablarida darslarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, unda ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqot metodlari uyg'un holda qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida musiqa ta'limi sohasiga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar tahlil qilindi hamda amaliy mashg'ulotlar jarayoni kuzatildi.



Date: 13th January-2026



Tadqiqotda nazariy tahlil metodi orqali musiqa ta'limida innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar o'rganildi, mavjud yondashuvlar tizimlashtirildi va muammo holati aniqlashtirildi. Taqqoslash va umumlashtirish metodlari yordamida an'anaviy va innovatsion darslarni tashkil etish usullarining samaradorligi qiyosiy tahlil qilindi.

Amaliy qismda pedagogik kuzatuv metodi asosida bolalar musiqa va san'at maktablarida olib borilayotgan amaliy darslar tahlil qilindi. Suhbat va so'rovnoma metodlari orqali o'qituvchilar va o'quvchilarning innovatsion texnologiyalarga bo'lgan munosabati, ularning dars jarayonidagi faolligi va qiziqish darajasi o'rganildi. Shuningdek, tajriba-sinov ishlari o'tkazilib, multimedia vositalari, interfaol dasturlar va raqamli resurslardan foydalanilgan darslarning samaradorligi baholandi. Olingan natijalarni tahlil qilishda pedagogik tahlil va xulosa chiqarish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari asosida bolalar musiqa va san'at maktablarida amaliy darslarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS RESULTS)

Xalq cholg'ularini o'rganishda innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning musiqiy tafakkurini rivojlantiradi, ularning ijodiy yondashuvini shakllantiradi. Masalan, elektron o'quv qo'llanmalar multimedia vositalari, audio va video yozuvlar, interaktiv taqdimotlar, virtual darslar hamda elektron o'quv qo'llanmalardan foydalanish o'quvchilarga cholg'u sozlarining tovush imkoniyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi va shu orqali cholg'ularning kelib chiqishi, tarixiy rivoji va ijro ko'nikma an'analari o'rganiladi, bu esa nazariy bilimlarning amaliy ijro bilan uzviy bog'lashni ta'minlaydi. Aytaylik, dutor, rubob, gijjak, doira kabi cholg'ularni o'rgatishda professional ijrochilarning ijrolarini tinglash va tahlil qilish o'quvchilarda musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalar asosida xalq cholg'u sozlarini o'rgatishning amaliy ahamiyati, avvalo, o'quvchilarning ijrochilik ko'nikmalarini tez va samarali shakllantirishda namoyon bo'ladi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida o'quvchilar murakkab ijro usullarini vizual va eshitish orqali tezroq o'zlashtiradilar. Amaliy mashg'ulotlarda interfaol metodlardan foydalanish, jumladan, kichik guruhlarda ishlash, musiqiy mashqlarni bosqichma-bosqich bajarish, ijro jarayonini yozib olib tahlil qilish kabi usullar o'quvchilarning o'z ustida ishlash malakasini oshiradi. Interfaol amaliy darslar – o'quvchini passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida jalb qiladi, muhokama, savol-javob, guruh ishlarini va ijodiy topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayon ularning ijrochilikdagi xatolarini mustaqil aniqlash va bartaraf etishiga imkon yaratadi. Innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar xalq cholg'ularining milliy xususiyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. O'quvchilar cholg'u sozlarining kelib chiqishi, tarixiy rivoji va ijro an'analarni elektron manbalar orqali o'rganib, nazariy bilimlarni amaliy ijro bilan uyg'unlashtiradilar. Shuningdek, bunday yondashuv o'quvchilarda sahna madaniyatini shakllantirish, jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ijodiy faollikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Natijada, xalq cholg'u sozlarini o'rganish jarayoni nafaqat texnik mahoratni, balki estetik did va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini ham rivojlantiradi. Yana bir innovatsion texnologiyadan foydalanib Virtual

Date: 13th January-2026

ansambl asosida jamoaviy ijro texnologiyasida mukammal pedagogik g'oya sifatida virtual ansambl modeli ishlab chiqiladi. Bu modelda har bir o'quvchi alohida mashq qiladi va ijro audio yoki video shaklida yozib olinadi so'ngra yozuvlar yagona ansambl shaklida birlashtiriladi, natijada o'quvchi o'z ijrosini jamoa ijrosi bilan solishtirish imkoniga ega bo'ladi. Bu eshitish va moslashish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqot jarayonida bolalar musiqa va san'at maktablarida amaliy darslarni tashkil etish amaliyoti tahlil qilindi. Kuzatuv va tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy darslarda o'quvchilarning faolligi va ijodiy ishtiroki asosan o'qituvchi faoliyati bilan cheklanadi. Innovatsion texnologiyalar qo'llanilmagan mashg'ulotlarda o'quvchilarning musiqiy asarlarni idrok etish va ijro qilish jarayonida mustaqil fikrlash darajasi nisbatan past bo'lishi aniqlandi.

Tajriba-sinov jarayonida multimedia vositalari, audio-video materiallar, interfaol dasturlar va raqamli resurslar asosida tashkil etilgan amaliy darslar o'tkazildi. Natijada o'quvchilarning darsga qiziqishi, musiqiy eshitish qobiliyati va ritmni his etish ko'nikmalarida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, interfaol texnologiyalar yordamida olib borilgan mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijro faolligi va mustaqil ishlashga bo'lgan intilishi oshdi. So'rovnomma va suhbatlar natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarning aksariyati innovatsion texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshirishini e'tirof etdilar. O'quvchilar esa raqamli va multimedia vositalaridan foydalanilgan darslarni yanada qiziqarli va tushunarli deb baholadilar. Ayniqsa, musiqiy asarlarni audio-vizual tahlil qilish va raqamli mashqlar orqali takrorlash o'quvchilarning musiqiy xotirasini mustahkamlashga xizmat qildi. Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan amaliy darslar o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy tafakkurini shakllantirish hamda dars jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Tajriba-sinov natijalari bolalar musiqa va san'at maktablarida amaliy darslarni tashkil etish metodikasini takomillashtirish zarurligini ilmiy jihatdan tasdiqladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR (CONCLUSIONS AND RECOMMENDATIONS)

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi unga ko'ra bolalar musiqa va san'at maktablarida amaliy darslarni tashkil etishda multimedia vositalari, audio-video materiallar va interfaol dasturlardan tizimli foydalanish tavsiya etiladi. Bu musiqa o'qituvchilari uchun innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha malaka oshirish va metodik seminarlar tashkil etish zarur amaliy mashg'ulotlarni rejalashtirishda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuvni joriy etish lozim va raqamli resurslar asosida mustaqil mashqlar va uy vazifalarini tashkil etish orqali o'quvchilarning musiqiy xotirasi va ijro malakasini mustahkamlash tavsiya etiladi, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar samaradorligini baholash uchun muntazam monitoring va tahlil ishlari olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan amaliy darslar an'anaviy mashg'ulotlarga nisbatan samaraliroq ekanligi aniqlandi. Bunday darslar o'quvchilarning



Date: 13th January-2026

musiqiy eshitish, ritmni his etish, ijro mahorati va estetik tafakkurining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik hamkorlikni mustahkamlab, ta'lim jarayonida interfaollik darajasini oshirdi.

Bolalar musiqa va san'at maktablarida darslarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish metodikasi musiqa ta'limining sifatini oshirish, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va zamonaviy ta'lim talablariga moslashishda muhim pedagogik omil ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" 2016 yil 14 sentabrdagi O'RQ-406-sonli qonuni. <https://lex.uz/docs/3026246>
2. "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 yanvardagi O'RQ-668-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/5230682>
3. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
4. Davronova G. Shodiyeva B. "Amaliy darslarda o'zbek xalq cholg'u sozlarini o'rgatishning samarali metodik yondashuvlari" Qo'qon DPI Ilmiy xabarlar. 2-son. 2025 yil 1402 bet.
5. Davronova, G. (2024). "Individual yondashuvlar asosida musiqa o'qitish metodikasini takomillashtirish". "Musiqa ta'limi va san'atining bugungi globallashuv sharoitida milliy - ijtimoiy ahamiyati: muammo va yechimlar" nomli Respublika ilmiy- amaliy konferensiya to'plami. Nordic_Press, 5(0005).
6. Ziyomuhammadov, M. Tojiyev. Pedagogik texnologiya zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent — 2009-yil.
7. Ishmuxammedov R. Innovation texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.:Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
8. Ishmuxammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar. - T.: Iste'dod, 2008.

